



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 19-iyun, № 124 (9295)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



XORIJIY SARMOYADORLAR BILAN KENG KO'LAMLI SHERIKLIK HAR QACHONGIDAN HAM YUQORI DARAJAGA KO'TARILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-iyun kuni Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya, O'mon Sultonligi iqtisodiyot vaziri Xamis bin Sayf al-Jabriy boshchiligidagi delegatsiya va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.



ETTB prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan Yangi O'zbekistonda islohotlar dasturini amalga oshirish doirasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish va keng ko'lamli sheriklikni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Ushbu yetakchi ko'p tomonlama moliyaviy institut bilan strategik sheriklik bugungi kunda har qachongidan ham yuqori darajada ekani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugun O'zbekiston ETTBning mintaqadagi eng yirik hamkori hisoblanadi. Ustuvor yo'nalishlardagi loyihalarining umumiy portfeli

7 milliard dollardan oshdi. Investitsiyalarning katta qismi xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Ekologik transportni rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini raqamlashtirish, tadbirkorlik, ipoteka bozori va mamlakat startaplar ekotizimini qo'llab-quvvatlash sohalarida yangi kelishuvlar

imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yilda kichik va o'rta biznesni kreditlash ko'lamini kengaytirish, jumladan, eksportni moliyalashtirish, ayollar va yoshlarni biznes yuritishga o'qitish dasturlarini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohaslarini rivojlantirish hamda bank-moliya sektorini

transformatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etish va boshqa yo'nalishlar ustuvor etib belgilandi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

YANGI O'ZBEKISTON — AMALIY ISLOHOTLAR MAYDONI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

V Toshkent xalqaro investitsiya forumi dasturidagi mazkur tadbir investitsiyaviy faollikni oshirish, biznes muhitini yaxshilash, pirovardida mamlakatimizga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi ortishida muhim o'rin tutmoqda.

Darhaqiqat, Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi o'tgan davrda oddiy maslahat mexanizmidan amaliy

islohotlar maydoniga, Yangi O'zbekiston bilan jahon investitsiya hamjamiyati o'rtasidagi ishonchli ko'priikka aylandi. Bugun esa u mustaqil Assotsiatsiya maqomiga ega bo'lib, tom ma'noda kuchli institut darajasiga ko'tarildi. Oxirgi bir yil ichida kengash ishtirokchilari soni 54 ta kompaniyadan 85 taga yetgani uning nufuzi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari investorlarning tashabbuslari davlat siyosatida o'zining amaliy ifodasini topayotganini, takliflarning salmoqli qismi asosida normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirilganini alohida ta'kidladi.

Bu galgi majlisga tayyorgarlik jarayonida 120 ta yangi taklif va tashabbus kelib tushgan.

Bular investitsiya muhitini yaxshilash, soliq tizimi, kadastr, energetika, moliya va bank tizimi, korporativ boshqaruv, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot masalalaridir.

Prezidentimiz, ayniqsa, quyidagi takliflar hozir har qachongidan ham dolzarbligini ta'kidladi. Xususan, valyuta aylanmasidagi monitoring jarayonlarini yengillashtirish,

islomiy sug'urta, "yashil" kredit, bank aktivlari bozorini yo'lga qo'yish kabi yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish, korxonalarda atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va samarali boshqaruvni o'z ichiga olgan "ESG" tamoyillarini qo'llashni rag'batlantirish.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XORIJIY INVESTORLAR KENGASHINING YALPI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!
Hurmatli Odil Reno-Basso xonim!
Qadrlil do'stlar!

Sizlarni Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi majlisida ko'rib turganimdan xursandman.

Avvalo, hurmatli Reno-Basso xonim, islohotlarimizni doimiy qo'llab-quvvatlab kelayotganingiz va Kengash faoliyatidagi samarali raisligingiz uchun sizga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga, bugungi anjumanda qatnashayotgan barcha xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar rahbarlariga samimiy ehtiromimni izhor etaman.

Hurmatli xonimlar va janoblalr!
So'nggi yillarda Kengash oddiy maslahat mexanizmidan amaliy islohotlar maydoniga, Yangi O'zbekiston bilan jahon investitsiya hamjamiyati o'rtasidagi ishonchli ko'priikka aylandi. Bugun Kengash mustaqil Assotsiatsiya maqomiga ega bo'lib, tom ma'noda kuchli institut darajasiga ko'tarildi. O'tgan bir yil davomida Kengashda ishtirok etayotgan kompaniyalar soni 54 tadan 85 taga yetdi. Ular iqtisodiyotimizning 23 ta tarmog'ini qamrab olib, ishchi guruhlar faoliyatida bevosita ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi Kengashning ljiroiya qo'mitasi tarkibida faoliyat yuritmoqda.

E'tiborli tomoni, barcha a'zolarimizning Kengashdagi faolligi tobora oshmoqda. Bu — mazkur investitsiya platformasiga bo'lgan yuksak ishonchning yaqqol dalilidir.

Hurmatli Kengash ishtirokchilari!
Sizlar bilan o'tgan yili ham uchrashib, ko'p masalalarni gaplashib olgan edik. Avvalgi

majlisda ilgari surilgan 21 ta tashabbusga aniq yechimlar berildi.

Shuni alohida ta'kidlamoqchiman, investorlarning tashabbuslari davlat siyosatida o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Takliflarning salmoqli qismi asosida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirdik. Jumladan: Soliq kodeksiga investorlar uchun qulay bo'lgan o'zgartirishlar kiritildi; kompaniyalar o'rtasidagi ichki qarz bitimlari moliya nazoratidan chiqarildi; asosiy vositalarni tezlashtirilgan tartibda amortizatsiya qilish huquqi berildi; xalqaro standartlar asosida hisobot yurituvchi xorijiy shirkatlar uchun ko'plab majburiy talablar bekor qilindi.

Bundan tashqari, "Muqobil investitsiya jamg'armalari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mas'uliyatli biznes yuritish standartlarini joriy etish hamda 16 ta texnik reglamentni xalqaro me'yorlarga muvofiqlashtirish dasturi tayyorlandi. Shu bilan birga, xorijiy investorlarga teng va adolatli sharoit yaratish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasimizga olishda yangi qadamlar tashladik. Yaqinda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Xalqaro investitsiyalar va ko'p millatli korxonalar to'g'risidagi deklaratsiyasiga qo'shilishimizni e'lon qildik. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilinishi kutilmoqda.

Bularning barchasi — g'oyalaringiz amaliyotda tatbiq etilayotganiga yorqin dalildir. Hurmatli Kengash ishtirokchilari!

O'tgan davrda Kengash huzuridagi ishchi guruhlar tomonidan investorlar uchun 50 dan ortiq foydali yig'ilishlar o'tkazildi. Natijada muqobil

investitsiya jamg'armalari, garov qonunchiligi, mas'uliyatli biznes yuritish, professional kadrlar tayyorlash, soliq ma'murchiligi, yer ajratish va energetika kabi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha muammolar xorijiy investorlar hamraisligida atroflicha muhokama qilindi.

Bugungi majlisga tayyorgarlik jarayonida sizlardan 120 ta yangi taklif va tashabbus kelib tushdi. Ularning barchasini batafsil tahlil qilib, yettita ustuvor yo'nalishga birlashtirdik. Bular: investitsiya muhitini yaxshilash, soliq tizimi, kadastr, energetika, moliya va bank tizimi, korporativ boshqaruv, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot masalalaridir.

Ayniqsa, valyuta aylanmasidagi monitoring jarayonlarini yengillashtirish; islomiy sug'urta, "yashil" kredit, banklarning muammoli aktivlari savdosini yo'lga qo'yish kabi yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish; korxonalarda atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va samarali boshqaruvni o'z ichiga olgan "ESG" tamoyillari qo'llanishini rag'batlantirish kabi takliflar hozir har qachongidan ham dolzarbdir.

Shu bois, har bir yo'nalish bo'yicha mas'ullar belgilanib, aniq yechimlar ishlab chiqildi.

Fursatdan foydalanib, mana shu dolzarb vazifani o'z zimmasiga olgan ishchi guruhlar hamraisilari: "Vision Invest", "BDO", "Crowe", "OTP Group", "Franklin Templeton", "Ernst & Young", "Kosta Legal" va "ACWA Power" kompaniyalari rahbarlariga minnatdorlik bildiraman.

Shuningdek, yil davomida samarali faollik ko'rsatib, muhim hujjatlar va puxta tashabbuslar tayyorlagani uchun Kengashning barcha a'zolariga alohida tashakkur aytaman.

Hurmatli xonimlar va janoblalr!
Endi bevosita muloqotga o'tsak.

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA: O'ZARO MANFAATLI ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 17-18-iyun kunlari Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rafiqasi hamrohligida rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

Qayd etish kerakki, ikki kunlik tashrif dasturi sermazmun bo'ldi. Tashrifning birinchi kuni O'zbekiston va Germaniya davlat rahbarlarining tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralar bo'lib o'tdi. Bir qator yangi qo'shma loyiha va dasturlar ishga tushirildi.

Davlatlar rahbarlari o'tkazilgan muzokaralar yakunlari bo'yicha Qo'shma bayonot qabul qilib, ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilishlarini tasdiqladilar. Ikki tomonlama hujjatlarni almashtirish marosimi ham bo'lib o'tdi. O'zbekistonda shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha loyihalarini bajarish uchun grant mablag'larini ajratish va imtiyozli moliyalashtirishni nazarda tutuvchi moliyaviy hamkorlik sohasidagi kelishuvlar imzolandi.

Oliy martabali mehmon 18-iyun kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy va zamonaviy ilm-fanni uyg'unlashtirgan, qo'lyozma manbalarni raqamli texnologiyalar asosida o'rganishga xizmat qiluvchi yirik xalqaro ilmiy-madaniy majmuadir.

(Davomi 2-betda).

Frank-Valter SHTAYNMAYER:

O'ZBEKISTON SIYOSIY VA IQTISODIY MUNOSABATLARNI ISHONCH BILAN RIVOJLANTIRISH MUMKIN BO'LGAN DOIMIY HAMKORGA AYLANDI

Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer O'zbekistonga ikki kunlik rasmiy tashrifi bo'yicha ommaviy axborot vositalari vakillariga oliy darajadagi O'zbekiston — Germaniya sammiti yakunlari yuzasidan intervyu berdi.

Eksklyuziv intervyu

— O'zbekistonga tashrifimiz davomida bizni an'anaviy o'zbekona mehmondo'stlik bilan kutib olishdi. Bugun esa biz o'ziga xos voqeilikning guvohi ham bo'ldik. O'zbekiston milliy futbol terma jamoasi mustaqillikning 35 yili mobaynida ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani bilan butun mamlakat haqli ravishda faxrlanmoqda.

Millionlab insonlar muxlislik qilgan birinchi o'yin kutilganidek kechmadi, biroq oldinda guruh bosqichining yana ikkita uchrashuvi bor. Biz jamoaga chin dildan muvaffaqiyat tilaymiz va uning musobaqada yanada olg'a borishiga umid qilamiz.

(Davomi 2-betda).

YANGI TARIX YOZILGAN YORQIN TONG



«Жаҳон чемпионати — 2026»

2026-yil 18-iyun. Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi AQSH, Kanada va Meksika yashil maydonlarida tashkil etilgan jahon chempionatida ilk o'yinini Janubiy Amerikaning kuchli jamoalaridan biri bo'lgan Kolumbiyaga qarshi o'tkazdi.

bartaraf etdi. O'ttizinchi daqiqada esa Eldor Shomurodov o'ziga xos mahoratini namoyish qildi. Tezkor hujumda raqib himoyachisini chiroyli aldagan holda xavfli vaziyat yaratdi.

O'yinning eng yorqin lahzasi esa 60-daqiqaga to'g'ri keldi.

Dostonbek Hamdamov chap qanotdan boshlagan hujumni Eldor Shomurodov zarba bilan davom ettirdi. Darvozabondan qaytgan to'pni esa Fayzullayev bosh bilan bo'sh qolgan darvozaga yo'lladi. G-o-o-o-I-I!!!! "Abbosbek! Abbosbek!", "Abbosbek Fayzullayev!" Bu nom endi futbol skautlari tilida ham aylanayotgani haqida ijtimoiy tarmoqlarda yozishmoqda.

Zero, bu oddiy gol emas edi. Bu O'zbekiston futbolining jahon chempionatlarida tarixdagi ilk goli bo'ldi.

Yakunda Kolumbiya terma jamoasi 3:1 hisobida g'alaba qozondi. Biroq maydondagi voqealar, o'yinning mazmuni hisobdan ancha kengroq taassurot qoldirdi. Buni futbol xilosmandlari ham quyidagicha e'tirof etishmoqda.

"Abbosbek, yashavor o'zbek o'g'loni!"

"Yomon o'ynamadik, Kolumbiya hozirda Braziliyadan va Argentinadan kuchli".

"Kolumbiya bilan tengma-teng o'ynadik. Ayrim joylarda xato bo'ldi. Yigitlar zo'r o'ynashdi. Keyingi o'yinlarda omad yor bo'lsin!"

Tarixiy gol muallifi **Abbosbek Fayzullayev** ham muxlislar qalbidagi hissiyotlarni o'yin nihoyasidagi intervyusida quyidagicha ifodaladi:

"Natijadan, albatta, xafamiz, chunki ochko olishimiz mumkin edi. Bolalar borini berishdi. Baribir birinchi daqiqalarda hayajon bo'ldi,



lekin ikkinchi taym boshlanganidan keyin o'z o'yinimizni ko'rsatishni boshladik. Gol urishga ham muvaffaq bo'ldik. O'zimizning xatolimiz sabab ikkinchi golni o'tkazib yubordik. Baribir bu alam qiladi, lekin O'zbekistonda turib yoki mana shu stadiona kelib qo'llab-quvvatlagan barcha futbolsevarlarga katta rahmat aytaman. Ertalabki soat yettida turib, bu o'yinni ko'rgan barcha muxlislarimizdan minnatdormiz. Oldimizda hali ikkita o'yin bor va bor e'tiborimizni Portugaliyaga qaratamiz".

Nufuzli "Sofascore" nashri ham ushbu uchrashuv uchun baholarni e'lon qildi. Terma jamoamiz safida eng yuqori bahoni aynan



tarixiy gol muallifi Abbosbek Fayzullayev oldi. Yarim himoyachimiz 7,1 bahoga loyiq ko'ildi.

O'yin yakunlangach terma jamoamiz bosh murabbiyi **Fabio Kannavaro** matbuot anjumanida quyidagi fikrlarni bildirdi:

"Avvalambor, biz O'zbekistonni butun dunyoga ijobiy namoyish etish uchun bu yerga keldik. Men doim jamoamga o'yin davomida faol harakat qilish kerakligini aytib

barqarorligini va kelgusi o'yinlarga ishonchni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Tarixiy uchrashuv va tarixiy gol mamlakatimiz rahbari e'tiboridan ham chetda qolmadi. Poytaxtimizda o'tayotgan Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi yig'ilishida **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev** terma jamoamizga alohida to'xtalib: "O'zbekiston uchun tarixiy kun. Murosasiz, juda qizg'in kechgan o'yinda futbolchilarimiz jahon mundialida birinchi marta juda katta tajribali jamoaga qarshi o'zining kuchli xarakterini ko'rsatdi. Oson emas! 34 yil biz kutgan voqea sodir bo'ldi. Futbolchilarimiz kuchli xarakterli, jismoniy tayyorgarligi va irodasini yaqqol namoyon etdi, desak, bu ham to'g'ri. Biz uchun chempionatdagi birinchi golimiz – bu ham g'alaba. Bir narsani aytmog'chimanki, biz vatanparvar va fidoyi yoshlarimiz bilan faxrlanamiz va ular hozirgi O'zbekistonning haqiqiy qahramonlari.

Hali oldimizda juda ko'p imkoniyatlar bor. Farzandlarim, qahramonlarim ko'p narsaga qodir ekanliklarini bildirdi. Biz ularga faqat omad tilaymiz. Olg'a, O'zbekiston!" dedi.

Darhaqiqat, bugungi natija tablodagi hisob bilangina o'chkanmaydi. Uchrashuv O'zbekiston futbolining dunyo futbol xaritasidagi yangi manzili belgilab berdi. Yoshlarimiz qo'rqmasdan o'ynashini, kuchli raqiblarga qarshi kurashishini va eng muhimi, mundial sahnasida gol ura olishini isbotladi.

Bu hali oxiri emas. Aksincha, katta yo'lning boshlanishi. Endi ulug'vor maqsadlar, ahdu shahdlar navbatdagi sinovga qaratilgan. Chunki yashil maydonda kecha tarix yozilgan bo'lsa, ertaga yangi sahifalarni bitish imkoniyati hali futbolchilarimizning qo'lida.

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

Mutolaa

O'TMISH VA KELAJAK
TUTASHGAN NUQTADA

Ba'zan bir kitobning dunyoga kelish fursati ham uning mazmuni qadar ma'noli bo'ladi. Sharofiddin Nazarovning "Evrilish nuqtalari: tarix va kelajak" asari ayni shunday palla – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi va sobiqqiron Amir Temur tavalludining

690-yilligi bir-biriga tutashgan bir onda kitobxon qo'lga yetib keldi. Bu tasodif emas. Muallif ikki sananing yonma-yan turishida chuqur ramziy ma'no ko'radi va o'quvchini ham shu ramzni ilg'ashga chorlaydi. U o'tmishga iqtisodchi ko'zi va deputatlik mas'uliyati bilan xolisona nazar soladi.

Tarix tekis oqavermaydi. Unda shunday pallalar bo'ladi, bir qaror, bir irodali qadam yoki bir uyg'onish butun xalq taqdirini o'zgartiradi. Muallif aynan ana shunday burilish onlarini, ya'ni tarixning "evrilish nuqtalari"ni tahlil markaziga qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan, kitob nomining o'zi bir da'vat. O'tmishni qotib qolgan xotira emas, balki bugungi qarorlarimizga saboq beradigan tirik tajriba sifatida o'qish da'vati.

Kitob ikki fikr og'ushida ochildi. Biri – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tarixni o'rganmay turib kelajakni ko'rib bo'lmashligi, yoshlarga tarixni to'g'ri o'rgatish esa har qanday yot g'oyaga qarshi eng kuchli qalqon ekanini haqidagi so'zlari. Ikkinchisi, taniqli tadqiqotchi Malkolm Gladuell ta'rif: "evrilish nuqtasi" – g'oya yoki ijtimoiy xulq-atvor ma'lum chegaradan oshib, birdan keng tarqala boshlaydigan lahzalar. Shu ikki nigoh milliy va jahoniy kitobning butun ruhini belgilab beradi.

Muallif Yangi O'zbekiston islohotlarigacha bo'lgan voqealarni berkitmaydi. Tadbirkorni "rasmiiy" va "real" valyuta kursi o'rtasida bo'lgan ikkiyoqlama tizim, naqd pul taqchilligi, yopiq chegaralar. U O'zbekistonning mintaqqa qoq markazida turib ham o'zini "mustahkam devor" bilan o'rab olgani, tranzit va savdo imkoniyatlaridan mahrum bo'lgani haqida ochiq yozadi. Davlat boshqaruvi esa xalqqa emas, yuqoriga hisobot berishga aylanib qolganini ta'kidlaydi. Bu fikrlar "Davlatchilik poydevorining buzilishi", "Tanazzul sabablari", "Sirli zanjir" kabi boblarda chuqurlashtirib boradi. Muallifning o'sha davr davlat boshqaruvi zanglab qolgan, faqat yuqoridan katta kuch bilan aylantirilgandagina ishlaydigan murakkab mashinaga qiyoslashi uzoq yodda qoladigan obraz.

Muallif hissiyotga emas, raqamga tayanadi. U yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga ulushi 1991 – 2015-yillarda rasmiy kursda uch baravar (650 dollardan 2130 dollarga) oshgan bo'lsa-da, bozordagi haqiqiy kurs bo'yicha atigi qariyb 40 foizga ko'tarilganini, ya'ni rasmiy raqamlar ortida farovonlik deyarli o'zgarmaganini daillar bilan ko'rsatadi. Ana shu tahliliy aniqlik asarga ishonch bag'ishlaydi.

Shu bilan birga, kitob 1991-yildan boshlanmaydi. Muallif tarqoqlikdan markazlashgan davlatchilikni barpo etgan va Uyg'onish davrini boshlab bergan Amir Temur siyosidan to tanazzul, sovet davri "paxta yakka-hokimligi" va mustaqillikka qadar bo'lgan uzoq yo'lni kuzatadi. Shu bois davlatchiligi cho'qqisi va mustaqilligi sinovi asarning ikki qutbdir.

Asarning birinchi qutbi – Amir Temur siyosati. Sobiqqiron tarixda tarqoqlikni birlikka, boshboshdoqlikni tartibli davlatchilikka aylantirgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Uning "Kuch – adolatda" degan hayotiy aqidasi, markazlashgan davlat barpo etishi, ilm-fan va me'morchilikka ko'rsatgan homiyligi bugun ham davlatchilik darsi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi qutb – mustaqillikning 35 yili. Muallif uni ham



tariximizning buyuk evrilish nuqtasi sifatida talqin qiladi. Xalqimiz o'z taqdirini o'z qo'lga olgan, davlatchiligi qayta tiklangan sana. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" shiori ostida amalga oshirilayotgan islohotlar esa inson qadriini ulug'lash, adolat, ochiqlik va qonun ustuvorligi o'sha temuriy davlatchilik mantig'ining zamonaviy davomi sifatida gavdalanadi.

Eng muhimi, kitob tashxis bilan cheklanmay, davo sari yuradi. Uning so'nggi boblari "Yangi boshqaruv falsafasi", "Tadbirkorlik fenomeni", "Birlashtiruvchi kuch" va "Birlik bor joyda tiriklik bor" Yangi O'zbekiston islohotlari mantig'ini ochib beradi va nigohni kelajakka qaratadi.

Eng muhimi, kitob tashxis bilan cheklanmay, davo sari yuradi. Uning so'nggi boblari "Yangi boshqaruv falsafasi", "Tadbirkorlik fenomeni", "Birlashtiruvchi kuch" va "Birlik bor joyda tiriklik bor" Yangi O'zbekiston islohotlari mantig'ini ochib beradi va nigohni kelajakka qaratadi.

Kitobning o'ziga xosligi, shubhasiz, muallif nigohining alohidaligida. Sharofiddin Nazarov iqtisodchi olim, Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi rahbari. Shu bois u tarixga faqat voqealar tizimi sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy tartib va institutlar nuqtayi nazaridan yondashadi. Bu yondashuv asarga tahliliy teranlik va amaliy ahamiyat baxsh etadi.

Eng muhimi, kitob nomidagi ikkinchi so'z: kelajak. Muallif o'tmishga nafaqat hurmat, balki mas'uliyat bilan nazar soladi. "Evrilish nuqtalari" bugungi avlodga bir savol tashlaydi: biz o'z davrimizning qaysi qarorlari bilan tarix yo'nalishini belgilaymiz? Adolat, bilim, inson kapitali va puxta davlatchilik... Muallif aynan shu qadriyatlarni kelajak poydevoriga qo'yadi.

"Evrilish nuqtalari: tarix va kelajak" – o'tmish bilan istiqbolni bir ko'priksiz tutashtirgan samimiy va teran mulohazalar to'plami. U tarixni sevuvi har bir o'quvchiga, ayniqsa, kelajak egalari bo'lmish yoshlarga o'z o'tmishidan faxrlanish va undan saboq olish tuyg'usini birdek hadya etadi. Bunday kitoblarni jamiyatimizning tarixiy xotirasini mustahkamlaydi va milliy o'zligimizni anglash yo'lida yorug' mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining
Fan, ta'lim, madaniyat,
sport va yoshlar masalalari
qo'mitasi raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

Amaldagi Mehnat kodeksida belgilangan qoida va normalarni keng tushuntirish maqsadida 3 jilddan iborat
"O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh" kitobi tayyorlandi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyatga berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nashriyot muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.53 Topshirildi – 02.20

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi